



CERTIFICATE OF PARTICIPATION

This certifies that

NAZAROVA GULBAKHOR PIRMANOVNA
has participated in the International Conference on

**FOLKLORE OF THE PEOPLES
OF THE EAST - A REFLECTION
OF NATIONAL VALUES**



G.RIKHSIEVA
Rector of TSUOS



held on
October 16, 2021



SHARQ XALQLARI FOLKLORI - MILLIY QADRIYATLAR IN'IKOSI


XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

ФОЛЬКЛОР НАРОДОВ ВОСТОКА - ОТРАЖЕНИЕ
НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

FOLKLORE OF THE PEOPLES OF THE EAST
- A REFLECTION OF NATIONAL VALUES

INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE



TOSHKENT
2021-yil 16-oktabr

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**SHARQ XALQLARI FOLKLORI - MILLIY
QADRIYATLAR IN'IKOSI**

**ФОЛЬКЛОР НАРОДОВ ВОСТОКА-
ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ**

**FOLKLORE OF THE PEOPLES OF THE EAST - A
REFLECTION OF NATIONAL VALUES**

Toshkent 2021

variantlilik, qat'iylik, to‘qqizinchi bobida formul ritorika, uslub, badiiy ijodda poetik usullarni qo‘llash, personajlar tizimi va tabiatiga munosabat aks ettirilgan.

Nihoyat, kitobning “Transformations in Space and Time” nomli o‘ninchи bobи “makon va vaqt” (xronotop) masalasi “Go‘ro‘g‘li” va “Alpomish” dostonlarining turli davrlarda yozib olingan turfa variant va xronologiyalarini yoritishga bag‘ishlangan.

Umuman olganda, Karl Rayxl tadqiqotlari turkiy, jumladan, o‘zbek xalqi og‘zaki epik ijodi bo‘yicha juda qimmatli materiallarni o‘z ichiga olganligi bilan e’tibor va e’tirofga loyiqidir.

Adabiyotlar:

1. Jumaniyozov Z.O. “Ravshan” dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish: Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2008. – 25 b.
2. Yusupova H.O‘. O‘zbek xalq og‘zaki nasri namunalarining inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalananishi (ertaklar, latifalar misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2011. – B.26-40.
3. Jo‘raeva M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xussiyatlari: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: Akademiya noshirlik markazi, 2017. – 87 b.
4. Fayzulloev O.M. O‘zbek fol’kloridagi lingvokul’turemalarning inglizcha tarjimada berilishi (bolalar fol’klori va ertaklar misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. – T., 2019. – 162 b.
5. Reichl K. Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction. – Hainsworth, 1989.
6. Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.

INGLIZ HAMDA O‘ZBEK FOLKLORIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR VA ULAR ISHTIROGIDAGI MOTIVLAR

Nazarova Gulbahor Pirmanovna

***Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi***

Annotasiya. Ingliz va o‘zbek adabiyoti xilma-xil mifologik obrazlarga boy bo‘lib, nafaqat qadimgi ingliz adabiyoti namunalarida balki zamonaviy adabiyotda ham keng qo‘llanilgan. Ingliz fol’klor namunalari el’flar, parilar, goblinlar, trollar va ajdaho kabi mifologik obrazlarga boy bo‘lsa, o‘zbek fol’klorida parilar, ajdarlar, devlar kabilardan iborat. Britaniya adabiyotida sohira mifologizmi ham juda ko‘p asarlarda uchraydi. Sohiralar hatto zamonaviy ingliz adabiyotida ham ko‘p uchraydi, ammo bu mifologik obraz zamonaviy adabiyotda uzoq o‘tmishdagi an'analar zamirida yaratilgan. Sohiralar O‘rta asr ingliz adabiyoti namunalaridan boshlab Shekspir asarlarigacha, Viktoriya davri adabiyoti namunalarida ham mavjuddir. O‘rta asrlar Britaniya adabiyotida sohiralar obrazining ommaviyligi asta-sekin pasayib borib, zamonaviy adabiyotning ilk bosqichlarida yana qayta jonlanadi. Endi sohiralar she’riyatning, xususan, Shekspir davri asosiy qahramonlariga aylanadi. She’riyat bilan birga, dramatik asarlarda ham sohira mifologizmining ommalashganini kuzatish mumkin. Viktoriya davri adabiyotida sohiralar yuvosh va beozor ko‘rinishga kirib, asosan, bolalar adabiyoti namunalarining qahramoniga aylana boshladи. XIX asr o‘rtalarida yaratilgan bolalar adabiyotida sohiralar juda oddiy va sodda, ba’zan ijobiy, ba’zan salbiy obraz sifatida ifodalangan. XX asrga kelib, sohira obrazi aksi yana fentezi janrida ham qo‘llanila boshlangan. Xususan, fentezi janrining buyuk namoyandasи J.R.Tolkien asarlarida qayta jonlandi. Tolkinning mashhur bolalar asari “Xobbit”, “Uzuklar hukmdori” asarlari shular jumlasidandir. Unda el’f va sohira obrazi asosiy qahramon sifatida tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: El’flar, parilar, goblinlar, trollar, ajdaho, dev, sohira

Аннотация: Английская и узбекская литература богата различными мифологическими образами и широко используется не только в образцах древнеанглийской, но и современной литературы. Примеры английского фольклора богаты мифологическими образами, такими как эльфы, феи, гоблины, тролли и драконы, тогда как в узбекском фольклоре это пери, деви и великаны. В британской литературе мифология колдовства также встречается во многих произведениях. Ведьмы распространены

даже в современной английской литературе, но этот мифологический образ основан на давних традициях современной литературы. Ведьмы также присутствуют в образцах средневековой английской литературы, от Шекспира до викторианской литературы. Популярность образа ведьм в средневековой британской литературе постепенно снижалась и возродилась на ранних этапах современной литературы. Теперь ведьмы становятся главными героями поэзии, особенно Шекспировского периода. Наряду с поэзией популярность мифологии колдовства прослеживается и в драматических произведениях. В викторианской литературе ведьмы стали казаться кроткими и беззаботными, став главными героями образцов детской литературы. В детской литературе середины девятнадцатого века ведьмы описываются как очень простые и откровенные, иногда положительные, иногда отрицательные. К XX веку образ ведьмы снова стал использоваться в жанре фэнтези. В частности, великий представитель жанра фэнтези возродился в творчестве Ю.Р.Толкина. Среди них известные детские произведения Толкина «Хоббит» и «Властелин колец». На нем изображены эльф и ведьма в качестве главных героев.

Ключевые слова. Эльфы, феи, гоблины, тролли, драконы, великаны, ведьмы

Abstract: English and Uzbek literature is rich in various mythological images and is widely used not only in samples of Old English, but also in modern literature. Examples of English folklore are rich in mythological images such as elves, fairies, goblins, trolls and dragons, while in Uzbek folklore they are peri, devi and giants. In British literature, the mythology of which is also found in many works. Witches are common even in modern English literature, but this mythological image is based on a long tradition in modern literature. Witches are also found in medieval English literature, from Shakespeare to Victorian literature. Witches are also found in medieval English literature, from Shakespeare to Victorian literature. The popularity of the image of witches in medieval British literature gradually declined and revived in the early stages of modern literature. Now witches are becoming the protagonists of poetry, especially of the Shakespearean period. Along with poetry, the popularity of the mythology of witchcraft

can be traced in dramatic works. In Victorian literature, witches began to appear meek and carefree, becoming the protagonists of children's literature. By the twentieth century, the image of the witch was again used in the fantasy genre. In particular, the great representative of the fantasy genre was revived in the work of R. Tolkien. Among them are the famous children's works by Tolkien "The Hobbit" and "The Lord of the Rings". It depicts an elf and a witch as the main characters.

Keywords. Elves, fairies, goblins, trolls, dragons, giants, witches

Mifologik obrazlar Britaniya hamda o'zbek adabiyotida bir necha asrlar oldingi og'zaki va yozma adabiyot namunalarida keng qo'llanilib kelingan. Qadimgi ingliz adabiyotidan to hozirgi zamonaviy adabiyot namunalarida ham mifonim va mifologizmlarni uchratish mumkin. El'flar, parilar, goblin va trollar, ajdaholar ingliz adabiyotining og'zaki hamda yozma namunalarida ko'p uchraydigan obrazlardir. Norman Talbot Britaniya adabiyotining tamal toshi hisoblangan Beovul'f asaridagi Keynning farzandlari "ylfe" (el'f) ekanligini aytib o'tgan.[3,94] Sohira va el'f mifologizmlari ba'zan sinonim sifatida ham ishlatiladi, ammo, ko'pchilik holatlarda ular ikki xil obraz ko'rinishida gavdalangan. Bu ikki mifologizm lingvistik kelib chiqishi jihatidan turlichadir. El'f so'zining kelib chiqishi qadimiyligi ingliz tiliga borib taqalib, Skandinaviya mifologiyasidan kelib chiqqan. Sohira (fairy) esa roman tillaridan kelib chiqib, zamonaviy adabiyotda keng ishlatiladi. Britaniya adabiyotida sohira mifologizmi juda ko'p asarlarda uchraydi. Sohiralar hatto zamonaviy ingliz adabiyotida ham ko'p uchraydi, ammo bu mifologik obraz zamonaviy adabiyotda uzoq o'tmishdagi an'analar zamirida yaratilgan. Sohiralar O'rta asr ingliz adabiyoti namunalaridan boshlab Shekspir asarlarigacha, Viktoriya davri adabiyoti namunalarida ham mavjuddir.

Yana shunday qadimiyligi asarlardan biri IX asarda yaratilgan irland asarlardan biri «Serglige Con Culainn» yoki «The Wasting Sickness of Cú Chulainn» asarlaridir. Ushbu asar qadimiyligi irland tilida yozilgan va X-XI asrga kelib ushbu asar O'rta asr irland tilida qayta yaratilgan. «The Wasting Sickness of Cú Chulainn» asarining asosiy qahramoni Kuxulin bo'lib, u Irlandiyaning qadimiyligi provinsiyalaridan hisoblangan Ulsterning mashhur qahramonlaridan edi. Kuxulin Quyosh xudosi Lug va uning ayoli Qirol Konkobarning singlisining o'g'li bo'lib, asosiy

vazifasi o‘z yeri va xalqini himoya qilish bo‘lgan. Asarda Kuxulinning opalari Fand va Liban sohiralar bo‘lgan. Sohiralar bir ko‘rinishdan ikkinchisiga o‘tish qobiliyatga ega bo‘lishgan. Bir kuni Kuxulin noma'lum kasallikka chalinib qolib, undan qutulish maqsadida ikki qushni otadi va bu qushlar qush ko‘rinishiga kirib olgan Kuxulinning ikki sohira opalari bo‘ladi. Bundan Kuxulin qattiq izardi tushib, bir necha kun hushsiz yotadi. Ushbu asardagi voqealar keyinchalik Uill'yam Batler Yitsning Kuxulin haqidagi «At the Hawk’s Well, On Baile’s Strand» p’esasida ham ifodalangan.

Keyinchalik sohira mifologizmidan O‘rta asr ingliz adabiyotida, asosan, Qirol Artur haqida yaratilgan asarlarda foydalanilgan. Qirol Artur haqidagi asarlarda uchta sohira obrazi mavjud bo‘lib, bular Morgan le Fey (Morgan le Fay), Ko‘l Sohirasi (the Lady of the Lake) va Ninyan(Niniane)dir. Morgan le Fey Qirol Arturning singlisi bo‘lib, afsonalarda u shifo berish qobiliyati bilan mashhur kasb etgan. Yana u ucha olish, bo‘riga aylana olish kabi sehrli kuchga ham ega bo‘lgan. Sohira Morgan sehrli Avulan (Avalon) orolida yashab, shu orolni boshqarib kelgan. Afsonalarda aytilishicha, Qirol Artur shiddatli janglarning birida qattiq yaralanadi va Sohira Morgan uni afsonaviy Avelin oroliga olib boradi. U yerda Arturning yaralarini davolab, qirollikka qaytish vaqt kelguncha shu yerda saqlab turadi. Sohira Morgan afsonalarda ba'zan salbiy obraz sifatida ham tasvirlangan.Qirol Artur va uning rafiqasi Gvinevra orasida kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sababchi bo‘lganligi va bundan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanganligi uning salbiy xususiyatlarini namoyon etadi. Ko‘l Sohirasi (the Lady of the Lake)Vivian yoki Nimua nomlari bilanQirol Artur haqidagi afsonalarda ko‘p uchraydigan mifologik obrazlardandir. Ba’zi manbalarda ko‘l sohirasi va Nimua bir obraz ekanligi ham qayd etilgan. U Lanchelot qiroli va Merlin bilan juda yaxshi munosabatda bo‘lgan. Ko‘l sohirasi mifologik obrazining paydo bo‘lishi qadimgi Kel’t afsonalaridagi suv xudosiga borib taqaladi. Ma'lumki, Britaniya orollari juda ko‘p ko‘llar, daryo va irmoqlar bilan o‘ralgan bo‘lganligi sababli Britaniya afsonalarining asosi suv bilan bog‘liq mifologizmlarni tashkil etadi. Shuning uchun Kel’t afsonalarining ko‘p tarqalgan qahramonlari suv xudolari va sohiralar bo‘lgan.

XII asr oxiri va XIII asr boshlarida ingliz adabiyotida yangi, Breton lay (O‘rta asrlar ingliz tilisida Lai Breton) shaklidagi she'r turi paydo

bo‘lgan. Bu she'r turi XII asr oxirida fransuz adabiyotidan ingliz adabiyotiga kirib kelib, bu turdag'i she'rlar ko‘proq sevgi-muhabbatni tarannum etuvchi qisqa va qofiyali, O‘rtalik asrlar adabiyoti qahramonlarining oljanobligi va tantilagini madh etuvchi, Kel't afsonalaridagi sehrgarlar o‘lkasi va g‘ayrioddiy qobiliyatli mifologik obrazlardan tashkil topgan romantik she'rlar bo‘lgan. Bu turdag'i she'rlar muallifsiz, og‘zaki adabiyot namunasida tarqalgan va yozma namunalari ham mavjud bo‘lgan.

Shekspirning «A Midsummer Night’s Dream» (1594-96) she'riy to‘plamining bosh qahramoni Titaniya (Titania) ham sohiradir. U qo‘pol savdogarni sevib qolganligi sababli ushbu she'rda masxaralaniladi, Titaniya boshqa sohiralardek sevgilisining tushiga kirib, uni sehrlab qo‘yish o‘rniga, o‘zi tushida o‘sha qo‘pol savdogarni ko‘rib, sehrlanib qoladi. Shekspir o‘z she'rlarida sohiralardan foydalanishda o‘zgacha uslubdan foydalanadi va sohiralarni oldingi davr adabiyotlaridek kuchli, baquvvat ayoldan yuvosh, bo‘ysunuvchan qiyofadagi obrazga aylantiradi. Bundan keyingi davr adabiyotida sohiralari, asosan, shu ko‘rinishda ifodalanishda davom ettirilaveradi. Titaniya insonlarga o‘xhash ko‘rinishda tasvirlangan bo‘lishiga qaramay, buning xizmatkorlari bo‘lmish boshqa sohiralari juda kichik qilib tasvirlangan. Fol’klorshunos Purkissning fikricha, Shekspir she'rlaridagi sohiralari fol’klor namunalari motivlaridan olinmagan, balki, mumtoz adabiyot namunalardagi mifologik obrazlarni boshqacha ko‘rinish bergen holda ifodalagan.[2,158] Insonlarga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan Titaniya sohirasidan tashqari, Shekspir o‘zining mashhur asari «Romeo va Jul’etta» da ham sohiralardan foydalangan. Ushbu asardagi Meb obrazi, oldingi sohiralardan farqi o‘la, yong‘oqdek juda kichkina va nozikdir. Uning bunday ko‘rinishi O‘rtalik Britaniya adabiyotida tasvirlangan mag‘rur, maftunkor sohiralardan ancha farqlidir. Aksincha, Shekspir Mebni ochko‘z, boylikka o‘ch sifatida tasvirlaydi. Qadimgi Britaniya adabiyoti namunalardagi sohiralari, odatda, juda ko‘p boylikka ega bo‘lib, o‘z sevgilisini boyliklar bilan siylab turadigan xususiyatga ega bo‘lsa, Shekspir asarlaridagi sohiralari, xususan, Mab bir oz ochko‘z va mag‘rurlikdan ancha yiroq qilib tasvirlagan. Masalan:

*“o ‘er courtiers’ knees, that dream on cur’sies straight;
O’er lawyers’ fingers, who straight dream on fees”*

Ushbu misrada sohiraning saroy amaldori tizzasi hamda huquqshunos barmoqlari ustidan uchib borishi uning jussasi qanchalik kichik ekanligidan dalolat beradi. Shekspir sohiralarni “xonakilashtirish”da ikki xil usuldan foydalanadi: ularni kulgili va jussasi kichkina yoki har ikkala xususiyatga ega ko‘rinishda tasvirlaydi. Sohiralarning bu ko‘rinishi keyinchalik Styuart davri adabiyoti namoyandalari Uil'yam Brouni, Robert Xerrik ijodida ham o‘z aksini topgan.

XII asrga kelib sohiralalar yana qadimgi Britaniya adabiyotidagi ko‘rinishda tasvirlanishi qayta avj oldi. Masalan, Jon Mil’ton o‘zining L’Allegro (1632) she’rida sohiralarni yoqimli va mehribon ko‘rinishda tasvirlaydi. Romantizm davriga kelib esa sohiralalar maftunkor va barchani o‘ziga qaratishga harakat qiladigan go‘zal mifologik obraz ko‘rinishida tasvirlanadi. Uil'yam Bleyk she’rlarida sohiralalar qadimgi afsonalardagi kabi, jozibali va insonlarga xos bo‘yi bastga ega qilib tasvirlangan. Bleykning «Long John Brown and Little Mary Bell» she’rida sohiralarni boshqalarning boshini aylantirmaslik maqsadida doim qafasda ushlab turish va nazorat qilishga da vat etadi. Briggsning fikricha, Romantizm davrida ingliz shoirlari sohira va el’flar haqida kam ma'lumotga ega ekanliklari va qiziqmaganliklarini ta'kidlaydi.[1,134] Umuman olganda, el’f va sohiralalar obrazi barcha asr Britaniya adabiyotida ommalashgan mifologik obraz bo‘lgan deyin mumkin. Fol’kloristlar Tomas Krofton Kroker, Volter Skott, Jeyms Xogg va Robert Souzi she’rlarida ushbu obrazlar ifoda etilgani ko‘rinadi.

Sohira ko‘pincha kichkina, nozik, qanotli mavjudot va qo‘llarida sehrli tayoqcha ushlab turgan ko‘rinishda gavdalantirilsa ham, Qirolicha Viktoriya va qirol Edvard davrlariga kelib, sohiralalar turli xil adabiyot, san’at namunalarida ular turlicha ko‘rinishlarda tasvirlangan. Sohiralalar she’rlar, balladalar, p’esalarning asosiy qahramoni bo‘lish bilan birga, opera va rassomlar ijod namunalaridan ham o‘rin topdi. Purkiss «Viktoriya davrida Angliya ertaklar makoniga aylanib, sohiralalar, el’flar, gnomlar va qanotli mavjudotlar asarlar hamda san’at namunalarida o‘z ko‘rinishlari bilan to‘lib toshgan, insoniyat fikrini ham qamrab olgan davr bo‘ldi» deb ta'kidlaydi.[2, 156] Biroq, sanoatlashuv va shaharlarning zamonaviylashishi sababli fol’klor namunalariga, xususan, mifologizmlarga bo‘lgan qiziqish yuqori qatlama vakillari orasida astasekin so‘na borganligi sababli el’flarning mavjudligiga bir oz shubha

bilan qaraydigan bir qator adabiyot namoyandalari tadqiqot ishlarini olib bordilar. Natijada ushbu mifologik obrazlarga bo‘lgan qiziqish qayta jonlana boshladi. Bolalar adabiyotida ayrim yozuvchilar ijodida sohiralar komik personaj ko‘rinishida ham keng qo‘llanilgan. Masalan, U.Tekkereyning «Atirgul va Uzuk» «The Roseand the Ring»(1855), Berri Peynning «Undan oldingisi» «The One Before» (1902), Эндрю Ленгнинг «Шахзода Пригио» «Prince Prigio» (1889) asarlari shular jumlasidandir. Ammo sohira obraziga haddan tashqari ko‘p “ishlov” berish, soddalik va oddiylik xususiyatini bo‘rttirib ko‘rsatish ushbu asarlarda kuchayganligi sababli, ushbu obrazning asliyatdagи xususiyati yo‘qolib borishi, buzilib ketishiga sabab bo‘ldi.[1, 138] Rouz Faylmenning «Bog‘imiz tubidagi sohiralar» «There are Fairies at the Bottom of our Garden» she’rida xuddi shu holatni ko‘rish mumkin. Ushbu she’rda sohiralashunchalik kichkinaligidan bog‘ning tubidan makon topganligi aytilmoqda. Ammo sohiralarningdastlabki ko‘rinishida ular kuchli va noyob qobiliyatli, sehrgarlik xususiyatiga ega, mag‘rur qilib tasvirlangan.

XX asrga kelib, sohira obrazi aksi yana fentezi janrining buyuk namoyandasasi J.R.Tolkien asarlarida qayta jonlandi. Tolkinning mashhur bolalar asari «Xobbit»shular jumlasidandir. Ushbu asar 1937 yilda nashr etilgan. Unda el’f va sohira obrazi asosiy qahramon sifatida tasvirlangan. Asarda «O‘rta Yer» mamlakati va unda dvarflar, el’flar, orklar, trollar va insonlar birgalikda yashaydi. Yozuvchi o‘z asarini Norvegiya mifologiyasi ta’sirida ijod qilganligi anglashiladi. Tolkien yaratgan el’f obrazlari nodir bo‘lib, XIX asr davri adabiyotidagi el’f obrazlaridan tubdan farqlanadi. Masalan, birinchidan, ular kichkina emas, balki insonlarga xos bo‘y-bastli, jozibali va kurashuvchan qilib tasvirlangan. Ikkinchidan, ular musiqani sevuvchi va raqsga qiziquvchi bo‘lgan. Tolkien asaridagi el’flar oldingilardan farqli ravishda, uzoq umr ko‘rvuchi va faqatgina janglarda o‘ldirilishi mumkin bo‘lgan qahramondir. Bundan tashqari, «Xobbit» dagi el’flar kuchli ahloq egalari, mehribon do‘st va o‘z yaqinlari uchun jonini fido qilishga tayyor obraz ko‘rinishida ifodalangan. Tolkinning «Xobbit»dan keyin yaratilgan» «Uzuklar hukmdori» «The Lord of the Rings» asari uning davomi sifatida ko‘rinsada, ushbu asar katta yoshdagilar uchun mo‘ljallangan. «Uzuklar hukmdori» asarining asosiy qahramonlari xobbitlar, entlar va el’flardir. Ammo ushbu asardagi el’flar sehrgarlik xususiyatiga ega bo‘lmagan,

juda nozik, ammo ijobiy obraz sifatida ifodalangan. Norvegiya mifologiyasi ta'sirida yana bir necha fentezi janrida asarlar yaratilgan bo'lib, ushbu asarlarda ham mifologik obrazlarni uchratish mumkin. Masalan, Jek Vansning «Suldrun Bog'i»«Suldrun's Garden» (1983), «Yashil Javohir»«The Green Pearl» (1985), «Madouk»«Madouc»(1989), Poul Andersonning «Singan Qilich»«The Broken Sword» va S. Cherrixning «Xayolchan daraxt»«The Dreaming Tree» (1997) asarlarida ham el'f va sohiralarning asosiy qahramon sifatida ifodalanganligini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotida namunalarida ham pari mifologizmi ham keng tarqalgan obrazlardan hisoblanadi va ular to'rt xil qiyofada tasavvur etilar ekan:

- a)antropomorf,ya'ni insoniy qiyofada tasavvur qilingan parilar;
- b) zoomorf, ya'ni hayvoniyqiyofada tasavvur qilingan parilar;
- v) qurama, ya'ni yarim inson, yarim jonivortarzidagi gibridd ko'rinishda tasavvur qilinadigan parilar;
- g)timsoliy qiyofa,ya'ni narsa-hodisalar tarzida tasavvur qilingan parilar.[4, 148]

O'zbek adabiyotidagi pari mifologik obrazining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning bir dumalab o'z qiyofasini o'zgartirishidadir. Ushbu xususiyat ingliz adabiyotidagi sohiralarda ham borligini aytib o'tgan edik. Ammo, pari qizlarobazi asosan bir dumalab kaptarga aylanishi, turli xil jonivorlar yoki qushlar qiyofasida tasvirlanishiturkiy xalqlar ertaklaridagi mushtarak epikan'analardan biri ekanligini G'.Jalolov, X.Egamov, B.Sarimsoqovlar ham qaydqilishgan.[4,149] O'zbek adabiyoti namunalarida ham parilar zoomorf qiyofasiga kirganda kaptar ko'rinishiga kirishi haqida quyidagi fikrni bildirganlar, ya'ni, «parilarning ko'proq qaysi parranda qiyofasiga kirishi masalasida o'zbek xalqertaklari va dostonlari bir xil xususiyatga ega. Har ikki janrda ham parilarkaptar qiyofasiga kiradilar, agar istisno tarzida pari qizlar boshqa xil qushlarqiyofasiga kirsa, bu hodisa faqat keyingi davrlarga xos transformasiya natijasisifatida olib qaralishi lozim. Shomon ritual marosimlarida ijro etiladigan aytimlarda tilga olingan Murg' pari, Lochin pari, Kaptar pari kabi mifonimlar parining zoomorf qiyofa kasbetishida qushga evrilish motivi borligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, parilar zoomorf qiyofasida aynan ko'k laptarga aylanishi ham qiziqarlidir. O'zbek adabiyoti namunalaridagi pari

mifologizmining yana bir xususiyatlaridan biri ularning qirq kanizi bilan yurishi hamda Ko‘hi Qof tog‘idagi Bog‘i Eramda makon topganligidadir. Ko‘hi Qof parilarining ko‘k kaptarga aylanibuchib yurishi o‘zbek xalq dostonlariga xos epik an'anadir.

O‘zbek adabiyotida namunalaridan biri bo‘lmish «Malikai ayyor» dostonida ham pari mifologizmi dostonning asosiy qahramoni Go‘ro‘g‘lining Zebit cho‘lida parilarga uchrashishi tasvirida parilar juda go‘zal xilqat, «pista dahan bir ajib nozanin», «jamoligaoyu kunlar talashgan ajab bir parizod» ko‘rinishida berilgan. Undan tashqari, ushbu dostonda parilarning kaptar obraziga aylanishi tasvirini ham ko‘rish mumkin:

«Osmondan ko‘k kaptar quyulib kelib, bir og‘nab turib, bir surxayil gapdon, bir ofatijon, pista dahan bir ajib nozanin pari bo‘lib turdi, bu parilarning jamoliga Go‘ro‘g‘libek qaradi: naqsh olmaday pishgan, qora zulfi och beliga tushgan, ko‘rganning aqli shoshgan, jamoliga oyu kunlar talashgan ajab bir parizod».[5, 7]

Tadqiqot jarayonida, o‘zbek adabiyotida parilar obrazining kaptarga aylanish xususiyati bilan birga, ularning ilon ko‘rinishiga kirishining ham guvohi bo‘ldik. O‘zbek mifologiyasida Ilon pari, Ajdar pari, Mor pari kabi mifonimlarning borligi va bunday nom bilan atalgan

parilar ilon suvratida tasavvur qilinganligi xalqimizda ilonning muqaddas ekanligini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari, o‘zbek ertak va afsonalarida qush jon ramzi bo‘lib kelganligini ham kuzatish mumkin. Shuning uchun parilarning qushga evrilishi motivi jonning qush ko‘rinishida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Masalan, «Qiron botir» ertagidagiquyidagi parchani tahlil qilsak: «... ikkita qutichadaikkita kaptar bor. Shu kaptarlarni qo‘lingga olib, sal siqsang, ikkimiz ham darrov yetib kelamiz»[6,4] deb parilar ertakning bosh qahramoni Qiron botirga aytishadi va unda parilarning joni shu kaptarlarda ekanligini tushunish mumkin.

Ingliz va o‘zbek fol’kloridagi obrazi pari obrazining faqat farqli jihatlarini emas, o‘xhash xususiyatlarini ham ta‘kidlash joiz. Masalan, har ikkala xalq og‘zaki badiiy ijodida parilar sehrli xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘rni kelganda turli qiyofaga kira oladi, o‘zining adolatli harakati, to‘g‘ri va aniq maslahatlari bilan qahramon g‘alabasiga imkon yaratadi. Bunga «Oypari», «Guliqahqah», «Xurshid bilan Laylo», «Odilbek bilan

Xurram», «Bulbuligo‘yo» kabi o‘zbek xalq ertaklarida keltirilgan pari obrazlarini misol qilish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pari obrazi ingliz va o‘zbek og‘zaki hamda yozma adabiyotida o‘ziga xos turlicha ko‘rinishlarda, xarakterli xususiyatlarda talqin etilgan. Shunga ko‘ra, har ikkala xalq fol’klori va yozma adabiyotida pari obrazi alohida o‘ringa ega.

Adabiyotlar:

1. Katherine Briggs. “Fairy”. Collier’s Encyclopedia. New York: MacMillan. Vol. 9, 2005.
2. Purkiss, Diane, Troublesome Things – A History of Fairies and Fairy Stories. London: Penguin, 2000.
3. Talbot Norman. “Where Do Elves Go To? Tolkien and a Fantasy Tradition”. Mythlore, 21:02, 1996.
4. Jo‘raev M, Qayumov O. O‘zbek mifologiyasida pari obrazi va uning shomon marosimlari fol’kloridagi o‘rni. NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU. 2020 yil 6-soni.
5. Malika ayyor (doston). O‘zbek xalq ijodi. – Toshkent, 1988.
6. Qiron Botir. O‘zbek xalq ijodi. <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/>

ТРАДИЦИОННЫЕ ФОРМУЛЫ ВОЛШЕБНОЙ ИНДОНЕЗИЙСКОЙ СКАЗКИ. ИНИЦИАЛЬНЫЕ ФОРМУЛЫ

*Абдуганиева Насибахон Азизовна
Ташкентский Государственный
Университет Востоковедения, преподаватель
Ташкент Республика Узбекистан*

Аннотация: данная статья посвящена исследованию поэтики и стиля волшебной сказки на материале малайско-индонезийского фольклора. Цель нашего исследования – анализ поэтической системы индонезийской волшебной сказки, как функционально организованного единства составляющих ее компонентов. В данной статье были рассмотрены инициальные формулы сказки, которые мы подразделили на «внешние» и «внутренние», то есть формулы.

BIRINCHI KENGASH. SHARQ MAMLAKATLARI FOL'KLORI JANRLARI BADIYATI VA YOZMA ADABIYOT RIVOJIDAGI O'RNI

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| Almaz Ulvi Binnatova. Dada Aliasqar – ozarbayjon bahshichilik maktabining cho'qqisi. Ozarbayjon..... | 5 |
| Kenjaeva Poshshajon Umidovna. Vali Savash Yelok. Turk bolalar folklorida milliylik va an'anaviylikning badiiy ifodasi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi. <u>Anqara, Turkiya</u> Respublikasi..... | 13 |
| Искакова Зауре Ереновна. Кокеева Дарига Молдагалиевна. Фольклор как отражение народного мировоззрения (на примере казахского и индийского народов). Алматы, Республика Казахстан..... | 19 |
| Muhibova Ulfatxon Uchqunovna. Buyuk ipak yo'li xalqlari folklor merosi: izlanishlar va natijalar. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 34 |
| Давлетшина Лейла Хасановна. О предметном мире турецких волшебных сказок. Казань, Российская Федерация..... | 41 |
| Ермолина Арина Ивановна. Связи народной и авторской песенно-поэтических традиций бенгалии. Санкт-Петербург, Россия..... | 38 |
| Mannonov Abdurahim Mutalovich. Pashtun xalq og'zaki ijodiyotida tarjima dostonlarning o'rni. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 48 |
| Xodjayeva Ra'no Umarovna. Arab maqollari va matallarida xalq hikmati va hayot tajribasi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 57 |
| Мухтаров Тимур Аскадович. Арабский народный роман (сира) и сказка. Ташкент, Республика Узбекистан..... | 64 |
| Ibrohimov Oqilxon Akbarovich. Musiqiy folklorda invariant-variant birligi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi | 74 |
| Bultakov Ikrom Yusupovich. O'rta asrlarda arab adabiyotida firibgarlik janri. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 80 |

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| Sariev San'atjon Machonboevich. Avtobiografik xarakterdagি dostonlar va dostonchilik. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 356 |
| Hamidov Xayrulla Xudoyorovich. Chingiz Aytmatov asarlaridagi mifologik unsurlar va ularning tarjimada berilishi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 365 |
| Abdulloev O. N. Usmon Azim ijodida folklor an'analari. Tojikiston..... | 373 |
| Ochilov Ergash. Ogahiy ijodida xalqona ohanglar. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 383 |
| | |
| Алимбеков Адхамбек. Xalq dostonida Alisher Navoiy obrazi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 392 |
| Astanova Gulnora Aminovna. "Ming bir kecha" va o'zbek mumtoz adabiyoti. Buhoro, O'zbekiston Respublikasi..... | 399 |
| Boqijon To'xliev. G'aroyib us-sig'ar" dagi xalq maqollari. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 407 |
| Ko'baev Qobil Umarovich. Afsona va badiiy haqiqat. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 412 |
| Mamadalieva Zuhra. Alisher Navoiy talqinida Iskandar obrazi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 417 |
| Исмоилов Хамдам. Фольклорная основа произведений Чингиза Айтматова. Ташкент, Республика Узбекистан..... | 424 |
| Rahmatov Yo'ldosh G'aybullaevich. Hadis, maqol va Navoiy hikmatlari. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 432 |
| Otajanova Manzura. Turkiy xalqlar etnomadaniy qadriyatlarining badiiy talqini. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 439 |
| Nazarova Gulbahor Pirmanovna. Ingliz hamda O'zbek folklorida mifologik obrazlar va ular ishtirokidagi motivlar. Buxoro, O'zbekiston Respublikasi..... | 450 |
| Mubarakova Dilshoda Abduraxmatovna. Child in Uzbek proverbs. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 459 |
| Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna. «Oshiq Najab» dostoni turkiy versiyalarining badiiy xususiyatlari. Qoraqalpoq Respublikasi..... | 465 |

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| Bafoyev Farruh Sadriddinovich. Xalq maqollarida takror. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi..... | 470 |
| Yusufjonova Madinabonu Abdumannob qizi. Koreys ertaklarining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati. Namangan, O'zbekiston Respublikasi..... | 475 |
| Yusupova Nafisa Zikrillayevna. Sharq mamlakatlari she'ryatida simurg' qushi talqini. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi | 484 |